

## UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI FANIDA BALIQLAR (PISCES) SINFI KELIB

### CHIQUISHI VA QIZIL KITOBGA KIRITILGAN BALIQ TURLARI BO'YICHA NAZARIY MALUMOTLAR TAHLILI

Burhonbek Mahammadjonov

Andijon Davlat pedagogika insituti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi Talabasi

Burhonbekmuhammadjonov920@gmail.com

#### Annotatsiya:

Umurtqalilar Zoologiyasi fanidagi mavzulardan biri bo'lgan Baliqlar (pisces) sinfining kelib chiqishi va Qizil kitobga kiritilgan Baliq turlari bo'yicha malumotlar asosan ingliz va rus tillarida mavjud. Ushbu tezisda ana shu adabiyotlar o'rganilib shu sinf bo'yicha barcha muhim ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Umurtqalilar Zoologiyasi, Baliqlar (Pisces), Sinf, Silur, Perm, Devon Qizil kitob, Qalqonli baliqlar (placodermi)

**Kirish:** Baliqlar (Pisces) — umurtqalilar kenja tipining katta sinfi, juda keng tarqalgan. Tuzilishi, hayot kechirishi va ekologik xususiyati suv muhitiga juda yaxshi moslangan. Baliqlarning qadimgi ajdodlari lansetnikka o'xshash soddal tuzilgan xordalilar bo'lgan. Tarixiy rivojlanish davomida dastlabki xordalilardan juft suzgich qanotli hayvonlar paydo bo'lgan. Ular yirtqich hayot kechirishgan. O'lja axtarib faol hayot kechirishi natijasida ularning nerv sistemasi va sezgi organlari rivojlana borib yo'l bilan baliqlar kelib chiqqan. Baliqlar suvda yashovchi xordali hayvonlar. (<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Baliqlar>)

**Asosiy qism:** Baliqlarning tangacha ko'rinishdagi qoldiqlari faqat ustki Silur qatlamlaridan topilgan. Ostki Devon davrida har xil guruhlariga kiradigan baliqlar paydo bo'lgan. Lekin, baliqlarning qazilma qoldiqlari yetarli darajada bolmaganligi va yaxshi saqlanmaganligi uchun ularning ayrim guruhlarining kelib chiqishini tushuntirishga imkon bermaydi. Shunday bo'lsada, paleontologik materiallarning o'rnini nazariy mulohazalar bilan to'ldirilib, to'garak og'izlilar bilan baliqlar bir umumiy ajdoddan kelib chiqqan degan fikrga kelingan. Ayrim olimlar (Berg, Romer, Grov, Uitson) baliqlar birinchi marta dengizda emas. Balki chuchuk suvlarda paydo bo'lgan va dengizlarga chuchuk suvlardan o'tgan degan fikrni ilgari



suradilar. Taxminlarga ko'ra, baliqlar Silur davrining boshida chuchuk suvlarda yashagan pteraspidomorflarga mansub bo'lgan har xil qalqondorlardan ajralib chiqqan. Demak eng qadimgi baliqlar qalqonli baliqlar bo'lgan. Qalqonli baliqlar (Placodermi) mayda va yirik (bo'yi 6 m) baliqlarni o'z ichiga olgan. Ularning tanasining oldingi qismisuyak plastinkalaridan tashkil topgan va murakkab qalqon bilan qoplangan.

Gavdasining keyingi qismi tangachalar bilan qoplangan yoki yalang'och bo'lgan. Kuchli jag'lari ko'pincha suyak qalqonchalar bilan qoplangan. Bu baliqlar Silur davridan Perm davrigacha keng tarqalgan, Devon davrining oxiri va Toshko'mir davrining boshiga kelib ular qirilib ketgan.

Qizil Kitobga kiritilgan baliqlar

Tahrir

2009-yilda chop etilgan "Qizil Kitob"ga baliqlarning 18 turi kiritilgan. Ular:

1. Orol bahrisi (bakra)
2. Sirdaryo kurakburuni (filbuyin)
3. Amudaryo kichik kurakburuni (toshbakra)
4. Amudaryo katta kurakburuni
5. Korakuz (oq sazan)
6. Toshkent yuzasuzari
7. Churtansifat oqqayrok (kalbaliq, churtanmarka)
8. Orol mo'ylabdori (sugyon, suzanbaliq)
9. Turkiston mo'ylabdori (shimbaliq)
10. Parrak (nashtarkanot)
11. Turkiston kukbo'yini (kukturta)
12. Orol tikanagi
13. Turkiston lakkachasi
14. Orol sulaymonbalig'i
15. Amudaryo gulbalig'i
16. Orol sanchari (tikanbaliq, itbaliq)
17. Chotqol shaytonbalig'i (toshbukasi)
18. Turkiston shaytonbalig'i (toshbukasi).

Orol sulaymonbalig'i (*Salmo trutta aralensis* Berg, 1908) soni har doim kam bo'lgan. 30-yillarda Orol dengizida yiliga 10 dona atrofida ovlangan. Oxirgi marta 1937-yili tutilgan. Hozirga kelib yer yuzida qirilib ketgan. Orol bahrisi va Orol mo'ylabdori oxirgi 20 yil davomida Toshkent va Farg'ona hududida umuman uchratilmagan.



Quyidagi Orol dengizida yashagan turlar hozirda bu yerda umuman yo'q bo'lib ketgan:

Acipenser nudiventris Lovetzky, 1828 – Orol bahrиси

Pseudoscaphirhynchus kaufmanni (Bogdanow, 1874) – Amudaryo katta kurakburuni

Abramis sapa (Pallas, 1811) – Qorako'z

Barbus brachycephalus brachycephalus Kessler, 1872 – Orol mo'ylovdori

Barbus capito conocephalus Kessler, 1872 – Turkiston mo'ylovdori

Leuciscus idus oxianus (Kessler, 1877) – Turkiston lakkachasi

Pungitius platygaster aralensis Kessler, 1874 – Orol sanchari

**Xulosa:** Taxminlarga ko'ra, baliqlar Silur davrining boshida chuchuk suvlarda yashagan pteraspidomorflarga mansub bo'lgan har xil qalqondorlardan ajralib chiqqan. Demak eng qadimgi baliqlar qalqonli baliqlar bo'lgan. Qalqonli baliqlar to'garak og'izlilarea quyidagi belgilar bilan yaqin turadi, ya'ni toq burun teshigining bo'lishi, jag'ining va juft suzgich qanotlarining bolmasligi, faqatichki qulog'ining bo'lishi. Shuning bilan bir qatorda qalqonli baliqlar to'garak og'izlilardan tashqi ko'rinishning ayrim belgilari hamda biologiyasi bilan farq qiladi. ya'ni ko'pchilik pansirli baliqlarning gavdasi yapaloq (yelka tomondan qorin tomonga yapaloqlashgan). Gavdasi ustki tomondan qalqon bilan qoplangan. Bu belgilar qalqonli baliqlar suvning chuqur joylarida yashaganligidan dalolat beradi. Qisqa qilib aytganda baliqlarning eng qadimgi ajdodi qalqonli baliqlar hisoblanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Umurtqalilar zoologiyasi. S. Dadayev. 2019.pdf
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Baliqlar>
3. <https://vdocuments.site/0aquv-qollanma-pedagogika-oliy-oaquv-yurtlarining-biologiya-va-inson-hayotiy.html>
4. <https://library.ziyonet.uz/uzc/book/120858>
5. <https://e-library.namdu.uz/28%20Биология%20фанлар/Zoologiya.%202-qism%20Sadikova%20S.%20Raxmonova%20L..pdf>
6. <https://lib.cspi.uz/index.php?newsid=2828>